

## TIJORIY MULOQOTNING IJTIMOIY-PRAGMATIK JIHATLARI.

Kakilova Ug'ilxon Bediyorovna

*Andijon davlat chet tillari instituti Qiyosiy tilshunoslik yo'nalishi 1-kurs magistranti.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada muallif tijoriy diskursga oid ilmiy tadqiqotlarga ilmiy yondashuvlar asosida tijoriy muloqotda ijtimoiy-pragmatik darajadagi kommunikativ xattiharakatlarni madaniyatlararo taqqoslay olishni tadqiq qilgan.

**Аннотация.** В данной статье автор исследовала кросскультурное сравнение коммуникативного поведения на социально-прагматическом уровне в коммерческом общении на основе научных подходов к исследованию коммерческого дискурса.

**Abstract.** In this article, the author investigates the cross-cultural comparison of communicative behavior at the social-pragmatic level in commercial communication based on scientific approaches to commercial discourse research.

**Kalit so'zлari:** ijtimoiy-pragmatika, tijoriy diskurs, ishbilarmonlik muloqoti, tijoriy muloqot, pragma-lingvistik, madaniyatlararo muloqot.

**Ключевые слова:** соционпрагматика, коммерческий дискурс, деловое общение, коммерческая коммуникация, прагмалингвистика, межкультурная коммуникация.

**Key words:** social-pragmatics,commercial discourse, business communication, commercial communication, pragma-lingistics, intercultural communication.

Jahon tilshunoslida ijtimoiy– pragmatik tadqiqiga doir izlanishlarning ko'lami ortib bormoqda. Jumladan, lisoniy vositalarning diskurs maqomidagi o'rganishlar amaliy jihatdan samarali kechmoqda. Bugungi kunda xalqlar o'rtasida ijtimoiy va tijoriy aloqalar rivojlanib bormoqda, shu o'rinda tijoriy diskurs o'zgarmoqda. Bugungi kunda O'zbekistonda tijorat va tadbirkorlik ishlari sezilarli tarzda oshib bormoqda. Jumladan, xalqaro kompaniyalar bilan shartnomalar imolanmoqda. Tilning tijoratga qo'shadigan hissasi, shu mavzuga doir matnlarning mazmuni, unda lisoniy imkoniyatlarning voqelanishi masalalarini o'rganish zaruratga aylanib bormoqda. "Chunki necha asrlar osha ajdodlarimizdan bizga bezavol o'tib kelayotgan ona tilimizning ravnaqi va istiqboli haqida qayg'urish – bu millatning o'zligini anglashi, uning ma'naviy kamolotini yuksaltirish uchun kurash demakdir. Davlat tilining obro'-e'tibori – butun xalq, butun jamiyatning obro'-e'tiboridir." Mana shu umumiyl vazifani bajarishda tijoriy muloqotlarning ijtimoiy-pragmatik jihatlarini aniqlash masalasi o'z yechimini kutmoqda.

Avvalo, "tijorat", "muloqot", "diskurs" tushunchalarining mazmun-mohiyatiga to'xtalish maqsadga muvofiqdir. Savdo-sotiq bilan bog'liq ko'plab atamalar arab va rus tillaridan tilimizga kirib kelgani sir emas.

"Tijorat" – so'zi ham arab tilidan kirib kelgan bo'lib, o'zbek tiliga aynan o'girganda "savdo" degan ma'noni anglatadi. Tijorat savdogarlik, oldi-sotdi ishi; savdo-sotiq, savdo (savdogarlik) ishlari tushuniladi. "Tijoriy" – so'zi ham arab tilidan olingan bo'lib, savdoga oid, tijoratga oid, tegishli, aloqador degan ma'nolarni anglatadi. Tijoratchi tijorat bilan shug'ullanuvchi shaxs degan ma'noni beradi .

Muloqot – murakkab ko’rinishdagi lisoniy (nutqiy) tafakkur faoliyatidir. Bu faoliyat natijasida nutqiy tuzilmalar hosil bo’ladi va ushbu tuzilmalar strukturasida lisoniy tafakkur faoliyatining «из»лари saqlanadi. Ammo ushbu «из»ларни topish va ularni qismlarga ajratish oson emas, zero, muloqot birligi – matnning tarkib topishida til tizimining barcha elementlari inson ongida tug’iladigan nutqiy qolipni voqelantiruvchi vositalarga aylanadilar . Tijoriy muloqot o’z –o’zidan tijorat tushunchasi bilan bog’liq. Tijorat – bu mutlaq iqtisodiy hodisadir, uning maqsadi foyda olish . Shunga ko’ra, tijoriy muloqot bu moddiy manfaat olish ko’zda tutilgan tijorat faoliyati ishtirokchilarining kommunikativ o’zaro ta’siridir. Ijtimoiy pragmatika tijorat qilayotgan vaqtimizda qanday harakat qilishimiz, o’z istaklarimiz va fikralrimizni og’zaki ifodalashdimizdir. Ular ko’z bilan aloqa qilish, birgalikda e’tibor , kinoya, burilish va almashishni o’z ichiga olgan muhim aloqa bloklarni o’z ichiga oladi.

Tijoriy muloqotning mohiyatini ochib berish "ishbilarmonlik muloqoti" va "biznes muloqoti" tushunchalarini tahlil qilish asosida amalga oshirilishi mumkin. Izlanishlarning natijasiga ko’ra, ishbilarmonlik muloqoti jarayonida ishtirokchilarning har biri o’z kasbi nuqtayi nazari bilan bog’liq vazifalarni hal qilishga intiladi, bu esa ishbilarmonlik aloqasi doimo maqsadli amalga oshiriladi degan xulosaga kelinishiga yordam beradi. Tijoriy aloqada esa, bu aloqa tijoratchilar faoliyatiga amalga oshiriladi degan xulosaga kelinish mumkin. Og’zaki tijoriy muloqotda samarali madaniyatlararo muloqotni kuchaytirish uchun aloqaga kiruvchilar xabarning pragmatic mazmunini aniqlay olishlari uchun ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy- pragmatik va pragma-lingvistik ma’lumotlarga ega bo’lishlari kerak bo’ladi. Suhbatdohimizning so’zlarini semantik va pragmatik jihatdan tushunish uchun biz hisobga olishimiz kerak bo’lgan jihatlar bor:

- (i) Suhbatdoshimizning maqsadi
- (ii) Nutqning tinglovchilarga ta’siri
- (iii) Biron narsani ma’lum bir tarzda ifodalashdan kelib chiqadigan natijalar
- (iv) Dunyo haqidagi bilim, faraz va qarashlarga ega bo’lish

Biz tijoratda ijtimoiy-madaniy farqlarni bilishimiz kerak bo’ladi, agar tadbirkor xatti-harakatlarning madaniy ma’nosini bimasa, u tijoratda yutkazib qo’yishi mumkin. Bu shuni ko’rsatadiki, madaniy chegaralar orqali biznesda muvaffaqiyatli bo’lish bu madaniyatlar o’rtasidagi farqlarni tushuna olish va hal qila olish qobiliyatiga bog’liq.Ular madaniy tafovutlar bilan kurashishga tayyor bo’lishlari kerak. Madaniyatlararo muloqot samarali bo’lishi uchun tijorat egalari xushmuomala bo’lishi kerak. Ko’p tillarda ijtimoiy sinfi, holati va o’rnini aks ettiradigan grammatik, leksikal, fonologik tizimlarda rasmiyatchilik, xushmuomalik va yaqinlik kabi pragmatik farqlar mavjud. Bunday misollardan biri bu olmoshdir va u pragmatik kuchni bildiradi. Nemis tilida Du/Sie olmoshi o’rtasida farq bor, bu yerda ‘birlik siz’ (du) va ko’plik ‘siz’(sie) dir. Ikkinchisi xushmuomalik va odob shakli sifatida tavsiflanadi. Boshqa tillarda chex tilida (ty/vy), italyan tilida (tu/lei), shved tilida (du/ni) yunon tillari shunga o’xhash. Ingliz tilida bunday farq yo’q. Ingliz tilida so’zlashuvchilar o’rtasidagi xushmuomalikni ifodalash uchun boshqa vositalardan foydalanish mumkin. Ingliz tilida muloyim ohanda so’rovlarni ifodalash uchun turli xil tuzilmalar mavjud, masalan , Can you ... ? / Could you ....? / Would you ...? / Will you ...? / Please do this / that ? / Would you mind doing ... ?

Xulosa qilib aytganda, madaniyatlararo muloqotda bo'lganimizda suhbatdoshimizning nutqidagi pragmatik ( ko'zda tutiladigan va bilvosita ) ma'noni aniqlash juda muhimdir. Biz ijtimoiy-pragmatik va pragma-lingvistik darajadagi kommunikativ xatti-harakatlarni madaniyatlararo taqqoslay olishni o'rGANISHIMIZ kerak, chunki biz tushunmovchiliklarning yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ehtimoliy muammolarga duch kelishimiz mumkin. Pragmatik tushunmovchilik suhbatdoshning mo'ljallangan ma'nosini tushunishda noto'g'ri talqinga yoki noto'g'ri muloqotga olib keladi. Muloqotdagi pragmatik tushunmovchilik tijorat dunyosida pragmatik yo'qotishni anglatadi. Shunday qilib , limgvistik va madaniy xabardorlikni oshirish uchun turli xil datsrular, boshqa mamlakatlarga biznes, tijorat va sanoat tashriflari, qisqa muddatli almashinuv boshqaruvchilar yoki ma'murlar dasturlari foydali bo'ladi.

### **ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. Мирзиёев Ш. Ўзбекистон халқига байрам табриги // Халқ сўзи, 2020 йил 21 октябрь
2. Мощева С. В. Интенциональность речевого поведения: система средств интенсификации: на материале коммерческого и некоммерческого рекламного дискурса: автореф. дис. ... докт. филол. наук. – Москва, 2019. – 52 с. – С. 21
3. Pragmatic approach to cross-cultural communication in the business world.  
Dr. DINÇAY KÖKSAL.Çanakkale Onsekiz Mart Universiteti, Turkiya
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-том. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 33-34. (680 б.)
5. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Жиззах: Сангзор, 2007. – Б.231
6. Каримов Р. Тижорат хатларининг лингвопрагматик аспекти: ўзбек ва инглиз тили материаллари асосида фил. фан. бўйича фалсафа д-ри. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Т., 2018. –190 б.